



SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI Q A R O R I

2021 йил «18» ноябрь

78-9-131-Q/21

Ширин шаҳар ҳокимлиги

Shirin shahrida 2022-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 320-modda)ning 6, 25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomga asoslanib, Shirin shahrida 2022-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida Shirin shahar hokimi mavjud korxonalar, muassasa va tashkilotlar xodimlarining ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan (1328 nafar) 92 kishini tashkil etadigan 7 foiz miqdoridagi, shu jumladan:

- o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 1 foiz (13 kishi);

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari 3 foiz (39 kishi);

- safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar 1 foiz (4 kishi);

- nogironlar uchun 3 foiz (24 kishi);

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 1 foiz (6 kishi);

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar, 1 foiz (4 kishi);

- odam savdosi qurbonlari uchun 0.5 foiz (2 kishi) ish o'rinlarining zaxirasi belgilansin.

2. Qarorning 1-bandida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha 2022-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qo'yilgan ish joylarini barpo etish vazifasi yuklatilgan tashkilotlar, korxonalar va muassasalar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o'rinlari xodimlar tomonidan o'zlarining mehnat majburiyatlarini to'siqlarsiz bajarishini ta'minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Shu jumladan:

- 14-yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo'yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo'shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo'lgan ish o'rinlari;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasb bo'yicha tayyorgarligiga muvofiq bo'lgan ish o'rinlari;

- safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos bo'lgan ish o'rinlari;

- nogironligi bo'lgan shaxslar uchun – mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilgan va xodimga ularning sog'ligi holatini va mehnat faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to'siqlarsiz bajarish imkonini beradigan ish o'rinlari;

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo'lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari;

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki

maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

- odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari xarakterli talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta‘minlaydigan ish o‘rinlari hamda yuqorida ko‘rsatilgan barcha toifalar uchun mos sharoitlar yaratilishi lozim.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar:

- ish joylarining eng kam miqdori (kvota) bo‘yicha ish o‘rinlarini tashkil etilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlarni har chorakda;

- ushbu o‘rinlarga ishga joylashganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotni oyning 25-sanasiga qadar shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga topshirsinar.

- ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan toifadagi shaxslarga maxsus ish joylari ajrata olmagan korxonalar va muassasalar ish joylarini ijaraga sotib olish yoki boshqa korxonalar bilan hamkorlikda tashkil etsin.

5. Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar:

qarorning birinchi bandi ikkinchi xat boshidan ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha tashkilotlar kesimidagi ish o‘rinlari ko‘rsatilgan miqdorda ilovaga muvofiq tashkil etilsin.

6. Tashkilotlarning rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 20-bandiga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlarini belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini ta‘minlasinlar.

7. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qaror bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma‘muriy javobgarlik belgilanishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

8. Ushbu qarorda belgilangan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlarga:

- muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun belgilangan ko‘rsatkichdan ortiqcha, shu jumladan ish uchastkalari (sexlar) tashkil etish uchun turar joy bo‘lmagan binolarni birinchi navbatda ajratish;

- O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-

B-sonli buyrug‘iga (AV buyruq raqami №3163, 31-mart 2019-yil) muvofiq ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravar miqdorida Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan subsidiya berilishi;

- mahalliy davlat hokimiyatiga berilgan vakolatlar doirasida qonunda belgilangan tartibda boshqa imtiyozlar berilishi mumkinligi belgilansin.

9. Shirin shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (X. Normatov) besh kunlik muddat ichida mazkur qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlari e‘tiboriga yetkazsin.

10. Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda “Shirin sadosi” ro'znoma bosh muharriri (O.Ashurqulov) ushbu qaror matnini “Shirin sadosi” ro'znomasida chop etilishini ta'minlasin.

11. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan shahar hokimining 2020 yil 9 sentyabrdagi № 205 –son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan, deb hisoblansin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni shahar hokimining birinchi o‘rinbosari M. Kuvandikov hamda shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi rahbari X. Normatov zimmasiga yuklatilsin.

13. Ushbu qaror 2022-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

Shahar hokimi



S.Sultonov

Ширин шаҳар ҳокимининг
2021 йил 18 ноябрдаги
78-9-131-Q/21-сон қарорига
1-илова

**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini
2022-yilga band qilib qo‘yishi lozim bo‘lgan korxonalar, tashkilot va muassasalar ro‘yxati**

T/r	Tashkilot nomi	Ishlovchilar soni	Maxsus ish o‘rni 7 %	Nogironlar uchun 3%	Xizmatdan bo‘shaganlar uchun 1 %	14 yoshgacha nogiron bolalari bor onalar uchun 1 %	O‘quv yurtlarini bitirgan yoshlar uchun 3 %	Jazo muddatini o‘taganlar uchun 1 %	Pensiya yetganlar uchun 1 %	Odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1 %
1	Tibbiyot birlashmasi	563	29	8	2	3	10	3	2	1
2	Obodonlashtirish boshqarmasi	108	10	2	1	1	2	1	2	1
3	“Barkamol avlod” bolalar maktabi	27	2	1	0	0	1	0	0	0
4	Bolalar-o‘smirlar sport maktabi	39	4	1	0	1	2	0	0	0
5	Shahar xalq ta’limi bo‘limi	33	3	1	0	0	2	0	0	0
6	Shahar madaniyat bo‘limi	22	2	0	0	0	2	0	0	0
7	1-maktabgacha ta’lim tashkiloti	36	3	0	0	1	2	0	0	0
8	2- maktabgacha ta’lim tashkiloti	50	4	1	0	1	2	0	0	0
9	3- maktabgacha ta’lim tashkiloti	33	3	0	0	1	2	0	0	0
10	4- maktabgacha ta’lim tashkiloti	46	4	2	0	1	1	0	0	0
11	5- maktabgacha ta’lim tashkiloti	33	3	1	0	1	1	0	0	0
12	6- maktabgacha ta’lim tashkiloti	24	2	1	0	0	1	0	0	0
13	1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	89	6	1	0	1	3	0	1	0
14	2- umumiy o‘rta ta’lim maktabi	71	5	2	0	1	2	0	0	0

15	3- umumiy o'rta ta'lim maktabi	107	8	2	1	0	4	0	1	0
16	4- umumiy o'rta ta'lim maktabi	71	6	2	0	1	3	0	0	0
	Jami:	1328	92	24	4	13	39	4	6	2